

“1991-2024-YILLARDA FARG‘ONA VODIYSIDA MIGRATSIYA HARAKATLARI: OMILLAR VA OQIBATLAR”

Inomjonov Elyor Dilmurod o‘g‘li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

tarix fakulteti magistranti

tel: +998930542111

Kalit so‘zlar: Mehnat migratsiyasi, aholi ko‘chishi, davlat siyosati, qaytgan migrantlar, urbanizatsiya, mintaqaviy migratsiya, migratsion oqimlar, iqtisodiy omillar, ijtimoiy integratsiya.

Annotatsiya: Mazkur ishda 1991–2024-yillar davomida Farg‘ona vodiysida yuz bergan migratsiya jarayonlari tahlil qilingan. Mustaqillik yillarida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar natijasida ichki va tashqi migratsiya ko‘lamining o‘zgarishi, uning aholining demografik tarkibi va ijtimoiy hayotiga ta’siri yoritilgan. Ishda mehnat migratsiyasining kuchayishi, ekologik muammolar, etnik va dini omillar, shuningdek, davlat siyosatining migratsion jarayonlarga ta’siri alohida o‘rganilgan. Shuningdek, migratsiya oqibatida Farg‘ona vodiysida yuzaga kelgan iqtisodiy o‘zgarishlar, urbanizatsiya jarayonlari va mehnat bozori tarkibining o‘zgarishi tahlil etilgan. Tadqiqot davomida statistik ma’lumotlar, arxiv hujjatlari va zamonaviy tadqiqotlar asosida migratsiyaning ijobiy va salbiy jihatlari ochib berilgan. Natijada, vodiyning barqaror rivojlanishi uchun migratsiya jarayonlarini boshqarish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Keywords: Labor migration, population migration, public policy, return migrants, urbanization, regional migration, migration flows, economic factors, social integration.

Abstract: This work analyzes the migration processes that occurred in the Fergana Valley during 1991–2024. During the years of independence, changes in the scale of internal and external migration as a result of economic, political and social factors were highlighted, as well as their impact on the demographic composition and

social life of the population. The work separately studied the increase in labor migration, environmental problems, ethnic and religious factors, as well as the impact of state policy on migration processes. Also, the economic changes, urbanization processes and changes in the composition of the labor market that occurred in the Fergana Valley as a result of migration were analyzed. During the study, the positive and negative aspects of migration were revealed based on statistical data, archival documents and modern research. As a result, recommendations were developed for managing migration processes for the sustainable development of the valley.

Ключевые слова: Трудовая миграция, миграция населения, государственная политика, возвратные мигранты, урбанизация, региональная миграция, миграционные потоки, экономические факторы, социальная интеграция.

Аннотация: В работе анализируются миграционные процессы, происходившие в Ферганской долине в период 1991–2024 гг. Освещены изменения масштабов внутренней и внешней миграции под воздействием экономических, политических и социальных факторов за годы независимости, ее влияние на демографический состав и общественную жизнь населения. В работе подробно рассматривается влияние роста трудовой миграции, экологических проблем, этнических и религиозных факторов, а также государственной политики на миграционные процессы. Также были проанализированы экономические изменения, процессы урбанизации и изменения в составе рынка труда в Ферганской долине в результате миграции. В исследовании на основе статистических данных, архивных документов и современных исследований выявлены положительные и отрицательные стороны миграции. В результате были разработаны рекомендации по управлению миграционными процессами для устойчивого развития долины.

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng muhim demografik va iqtisodiy hududlaridan biri sifatida migratsiya jarayonlarining markazida turadi. 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy

o'zgarishlarning yangi bosqichiga kirdi. Bu jarayonlar migratsiya harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, ayniqsa, bu holat aholisi zich joylashgan Farg'ona vodiysida yaqqol ko'rindi.

Farg'ona vodiysi o'zining yuqori aholi zichligi, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va cheklangan sanoat resurslari bilan migratsiya jarayonlarining o'ziga xos modelini shakllantiradi. Vodiyning Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlari aholisining aksariyati qishloq joylarda yashaydi, bu esa mehnat migratsiyasi va urbanizatsiya jarayonlariga alohida ta'sir ko'rsatadi. 1991-yildan keyin iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik va global mehnat bozorlarining ochilishi tashqi migratsiyani, xususan, Rossiya, Qozog'iston va boshqa davlatlarga mehnat migratsiyasini rag'batlantirdi. Shu bilan birga, ichki migratsiya, ayniqsa, Toshkent shahri va boshqa yirik shaharlarga yo'nalgan ko'chishlar ham sezilarli darajada o'sdi.

Migratsiya (lotincha *migratio* – ko'chish) aholining bir hududdan boshqa hududga doimiy yoki vaqtincha ko'chib o'tish jarayonidir. Migratsiya ichki (mamlakat ichida) va tashqi (xalqaro) turlarga bo'linadi. Bundan tashqari, migratsiya iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik omillarga qarab tasniflanadi. Farg'ona vodiysida migratsiya asosan iqtisodiy sabablarga (mehnat migratsiyasi) va ijtimoiy omillarga (oilaviy ko'chishlar, ta'lim migratsiyasi) asoslanadi. Nazariy jihatdan, migratsiya jarayonlari "turtma" va "tortma" omillari modeli (Push-Pull Theory) asosida tahlil qilinadi. "Turtma" omillarga ishsizlik, kam daromad va ijtimoiy infratuzilmaning yetishmasligi kiradi, "tortma" omillar esa yuqori ish haqi, yaxshi yashash sharoitlari va ta'lim imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarini o'z ichiga oladi. Vodiyning umumiy maydoni taxminan 22,000 km² ni tashkil etadi, bu O'zbekiston hududining taxminan 5% ga teng [1]. Biroq, vodiyning aholisi mamlakat umumiy aholisining qariyb 30% ini tashkil qiladi. 2024-yil holatiga ko'ra, Farg'ona vodiysida taxminan 11 million kishi yashaydi, bu esa yuqori aholi zichligini ko'rsatadi (1 km² ga o'rtacha 500 kishidan ko'p).

Vodiyning iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga asoslangan bo'lib, paxta, meva-sabzavot va ipakchilik yetakchi sohalardir. Sanoat infratuzilmasi cheklangan bo'lib, asosiy sanoat markazlari Andijon, Farg'ona va Marg'ilon shaharlarida joylashgan. Yuqori aholi zichligi va cheklangan iqtisodiy imkoniyatlar ishsizlikni oshiradi, bu esa migratsiya jarayonlarining asosiy "itarmo" omilidir. Shu bilan birga, vodiyning yosh aholisi (mehnatga layoqatli yoshdagilar 58% ni tashkil qiladi) migratsiya jarayonlarida faol ishtirok etadi.

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, iqtisodiy o'tish davri boshlandi. Sovet Ittifoqining qulashi bilan sanoat va qishloq xo'jaligi sohasidagi subsidiyalar qisqardi, bu esa ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Farg'ona vodiysida bu jarayonlar ayniqsa sezilarli bo'ldi, chunki vodiyning iqtisodiyoti eksportga yo'naltirilgan paxta yetishtirishga bog'liq edi. Ushbu davrda tashqi migratsiya asosan Rossiya va Qozog'istonga yo'naldi, bu mamlakatlarda o'zbek diasporasi va mehnat bozori imkoniyatlari mavjud edi.

Ichki migratsiya ham sezilarli darajada o'sdi. Toshkent shahri va boshqa yirik shaharlar (Samarqand, Buxoro) iqtisodiy imkoniyatlar va ta'lim markazlari sifatida jozibador bo'ldi. Andijon viloyatidan Toshkentga yo'nalgan migratsiya oqimi ayniqsa yuqori edi, chunki Andijon aholisining zichligi va iqtisodiy qiyinchiliklari bu jarayonni rag'batlantirdi.

2000-yillarda global iqtisodiy integratsiya va Rossiya iqtisodiyotidagi o'sish tashqi migratsiyani yanada kuchaytirdi. Farg'ona vodiysidan Rossiyaga mehnat migratsiyasi eng muhim yo'nalishga aylandi. 2007 yilda esa, O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida mehnat migratsiyasi to'g'risidagi kelishuv, hamda undan so'ng noqonuniy migrantlarni deportatsiya qilish, noqonuniy migratsiyani oldini olish va mehnat migrantlarining haq-huquqlarini himoya qilish masalalariga bag'ishlangan kelishuvlar kuchga kirdi. 2017-yildan boshlab ikki mamlakat o'rtasidagi mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik aloqalarining me'yoriy-huquqiy asoslari yanada kuchaytirilib, o'zbekistonlik mehnat migrantlari maxsus tayyorgarlikdan o'tgan holda Rossiya Federatsiyasida mehnat faoliyatini amalga oshirishlari belgilab olindi. 2017-

yil 21-dekabrda “Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkiliy asosda qabul qilish va jalb etish to‘g‘risida”gi hukumatlararo Bitimning kuchga kirishi migrantlar soni, mutaxassisligi va ularni qabul qiluvchi mintaqani real ehtiyojiga mos holda aniqlash hamda Rossiyaning vakolatli organlari tomonidan mehnat migrantlariga eng kam ish haqi talablariga rioya etish, munosib turmush sharoitlarini yaratish, tibbiy va ijtimoiy sug‘urta, xususan pensiya bilan ta’minlash bo‘yicha huquqiy kafolatlangan tartibni joriy qilish bo‘yicha ikki-tomonlama hamkorlik qilish imkoniyatini yaratdi [2].

Tashqi migratsiyada Rossiyadan tashqari Janubiy Koreya, Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlar ham jozibador bo‘la boshladi. Farg‘ona viloyatidan kelgan migrantlar asosan qurilish, xizmat ko‘rsatish va savdo sohasida faoliyat yuritdi. Ichki migratsiyada esa urbanizatsiya jarayonlari tezlashdi, bu esa vodiyning kichik shaharlari (Marg‘ilon, Qo‘qon) va qishloq hududlaridan yirik shaharlarga ko‘chishni rag‘batlantirdi.

2010-yildan keyin O‘zbekiston hukumati iqtisodiy islohotlarni faollashtirdi, bu migratsiya jarayonlariga yangi yo‘nalishlar berdi. 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentligi davrida tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yildi. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tashkil etilib, migrantlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rildi.

Farg‘ona vodiysida tashqi migratsiya Rossiya, Qozog‘iston va Janubiy Koreyaga yo‘naltirilgan bo‘lib, migrantlarning aksariyati qurilish, transport va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritdi. Shu bilan birga, ichki migratsiya Toshkent shahri va yangi tashkil etilgan sanoat zonalariga (masalan, Jizzax va Navoiy) yo‘naldi. 2019-yilda COVID-19 pandemiyasi migratsiya oqimlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Chet eldagi migrantlarning ko‘pchiligi O‘zbekistonga qaytib keldi, bu esa ichki mehnat bozorida qo‘shimcha bosim yaratdi.

2024-yilga kelib, Farg‘ona vodiysidagi migratsiya jarayonlari barqarorlashdi, ammo yuqori aholi zichligi va iqtisodiy cheklovlar tufayli migratsiya oqimlari davom

etmoqda. Vodiyning yosh aholisi, ayniqsa, ta'lim va mehnat imkoniyatlari izlab markaziy shaharlar, xususan poytaxt Toshkent shahri va xorijiy davlatlarga ko'chib o'tmoqda.

Farg'ona vodiysidagi migratsiyaning asosiy sababi iqtisodiy omillarga bog'liq. Zamonaviy texnologiyalarning vodiylar hududlarida keng joriy etilishi ortiqcha mehnat zaxirasini yaratdi, bu esa, migratsiya jarayonlari kuchaytirdi, ayniqsa, qishloq hududlarida, aholini mehnat migratsiyasiga undaydi. Vodiyning iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga asoslangan bo'lib, bu soha mavsumiy xususiyatga ega va barqaror daromad keltirmaydi. Shu sababli, ko'plab yoshlar Rossiya, Qozog'iston va boshqa davlatlarda qurilish va xizmat ko'rsatish sohasida ishlashni afzal ko'radi.

Ichki migratsiyada Toshkent shahrining iqtisodiy jozibadorligi muhim rol o'ynaydi. Toshkentda xizmat ko'rsatish, savdo va IT sohalari rivojlanmoqda, bu esa vodiyning yosh aholisini jalb qiladi. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysidagi kichik shaharlarda sanoat infratuzilmasining cheklanganligi ichki migratsiyani rag'batlantiradi.

Ijtimoiy omillar, xususan, oilaviy aloqalar va ta'lim imkoniyatlari migratsiya jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Farg'ona vodiysida oilaviy migratsiya keng tarqalgan, bunda oila a'zolaridan biri chet elda ishlaydi va qolgan a'zolar uning daromadiga tayanadi. Bu jarayon iqtisodiy barqarorlikni ta'minlasa-da, oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, uzoq muddatli migratsiya oilaviy ajrimlarning ortishiga olib keladi (3,5% hollarda migratsiya ajrim sababi sifatida ko'rsatilgan) [3].

Ta'lim migratsiyasi ham muhim omil hisoblanadi. Farg'ona vodiysidagi yoshlar oliy ta'lim olish uchun Toshkent, Samarqand yoki xorijiy davlatlarga (Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya) ko'chib o'tadi. Bu jarayon ayniqsa 2010-yildan keyin kuchaydi, chunki global ta'lim bozori ochildi va O'zbekiston hukumati xalqaro ta'lim dasturlarini qo'llab-quvvatladi.

Ekologik omillar, xususan, suv resurslarining cheklanganligi va qishloq xo'jaligi uchun erlarning kamayishi, migratsiyani rag'batlantiruvchi omillardir. Farg'ona

vodiysida suv taqsimoti bo'yicha Qirg'iziston va Tojikiston bilan ziddiyatlar qishloq xo'jaligi samaradorligiga ta'sir qiladi, bu esa aholini boshqa hududlarga ko'chishga majbur qiladi.

Farg'ona mintaqasi aholisi milliy tarkibi so'nggi bir yarim asrdan ortiq vaqt davomida sezilarli ravishda o'zgardi va nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyodagi ko'p millatli hududlardan biriga aylandi. Mintaqada hozirgi kunda 60 ga yaqin turli millat va elat vakillari istiqomat qiladilar. Migratsiya jarayonlari, viloyat aholisining milliy tarkibiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, viloyatda o'zbeklar 1991 yilda 82 foizni [4], 2020 yilda esa 89,5 foizni [5] tashkil etgan. Bunga sabab, o'zbeklarda tug'ilish darajasining nisbatan yuqoriligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, mustaqillik arafasida va mustaqillikning dastlabki yillarida boshqa millat vakillarining o'z tarixiy vataniga qaytishi natijasida ular sonining kamayishi bo'ldi.

O'zbek ayollari o'rtasida mehnat migratsiyasi, tarixan, xalqimizda begona bo'lgan hodisa edi. O'tgan yillarda ayollar chet elga ishlashga ketish fikridan uzoq bo'lib, bu holat faqat erkaklar bilan bog'liq deb hisoblanardi. Ammo hozirgi kunda bu masala hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Xususan, Vodiyning Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida ayollarning chet elga ishlashga ketishi tobora ko'payib bormoqda. Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlaridagi migratsiya holatlari haqida gapiradigan bo'lsak, bu viloyatlarda jami 89 mingdan ortiq ayol chet elga ishga ketgan. Xususan, Andijon viloyatida 48 ming, Farg'onada 30 ming, Namanganda esa 11 ming ayol migratsiya jarayonlarida ishtirok etmoqda. Ayollarning chet elga ishga ketishining asosiy sababi iqtisodiy muammolar bilan bog'liq. Ishsizlik, oila daromadining yetishmasligi, farzandlarga yaxshi sharoit yaratish imkoniyatining yo'qligi hamda chet eldagi turmush o'rtoqlariga yordam berish kabi omillar bu jarayonni kuchaytirib yuboradi.

2017-yilda tashkil etilgan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi O'zbekiston fuqarolarining xorijda qonuniy va xavfsiz ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Agentlik Farg'ona vodiysi migrantlarini Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarda ishga joylashtirishda faol ishtirok etadi. 2024-yilga kelib, agentlikning

elektron platformasi orqali migrantlar rezyumelarini joylashtirishi va ish o'rinlari bo'yicha tanlovlarda ishtirok etishi mumkin.

Ichki migratsiyani boshqarishda mahalla tizimi va hokimliklar muhim rol o'ynaydi. Mahallalar orqali migrantlarning ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi, shuningdek, ularning yangi yashash joylarida ro'yxatga olinishi va ishga joylashishi qo'llab-quvvatlanadi. Toshkent shahrida Farg'ona vodiysidan kelgan migrantlar uchun maxsus ijtimoiy dasturlar joriy etilgan, bu esa ularning shaharga integratsiyasini osonlashtiradi.

2026-yilga kelib, Migratsiya agentligi funksiyalarining bir qismi xususiy sektorga o'tkaziladi, bu esa migratsiya jarayonlarini yanada samarali boshqarishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Farg'ona vodiysida mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali migratsiyani kamaytirish strategiyalari ishlab chiqilmoqda.

Farg'ona vodiysidagi migratsiya jarayonlari 1991-2024-yillarda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar ta'sirida rivojlandi. Tashqi migratsiya Rossiya, Qozog'iston va Janubiy Koreyaga yo'naltirilgan bo'lib, ichki migratsiya esa asosan Toshkent shahri va boshqa yirik shaharlarga qaratilgan. Yuqori aholi zichligi, ishsizlik va cheklangan iqtisodiy imkoniyatlar migratsiyaning asosiy "turtma" omillari sifatida qolmoqda.

Kelajakda migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish: Farg'ona vodiysida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratilishi migratsiyani kamaytiradi.
2. Ta'lim va malaka oshirish dasturlari: Yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish va xorijiy mehnat bozorlariga moslashtirish migratsiyaning ijobiy ta'sirini oshiradi.
3. Ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish: Migrantlar va ularning oilalari uchun ijtimoiy dasturlar kengaytirilishi kerak.

4. Ekologik barqarorlik: Suv resurslarini boshqarish va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish migratsiyani kamaytirishga yordam beradi.

Farg'ona vodiysidagi migratsiya jarayonlari mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'lib, ularni boshqarish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Акромов З., Жемчужина Средней Азии, М., 1960; Ферганская долина. Т., 1954.
2. Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi ma'lumotlari// <http://migration.uz/uz/analitika/#>
3. <https://yuz.uz/uz/news/mehnat-migratsiyasi-va-uning-salbiy-oqibatlarini-qanday-bartaraf-etish-yollari-bor>.
4. Темиров З. (2020). Фарғона минтақаси аҳолиси миллий таркибидаги ўзгаришлар. "Science and Education" Scientific Journal. Volume 1.Issue 1. – Б. 103. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/download/595/58>
5. Юсупова С. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг миллатлараро муносабатларга таъсири. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий унвонини олиш учун ёзилган диссертация. – Андижон, 2019. – Б. 82,85.